

*Tuxtasinova Gulmira, o'qituvchi,
Tukhtasinova Gulmira, teacher
Sirtqi bo'lim, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası,
Farg'ona davlat universiteti*

O'QITISH METODLARI – BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINING GAROVI SIFATIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'qitish metodlarining muhim jihatlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: metod, innovatsiya, pedagogika, ta'lim, dars ishlanmasi.

TEACHING METHODS – AS A GUARANTEE OF THE EFFECTIVENESS OF PRIMARY EDUCATION

Annotation: This article examines the important aspects of teaching techniques in primary education.

Keywords: method, innovation, pedagogy, education, lesson ishlanmasi.

Globalashuv sharoitida ta'lim shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bugungi tezkor davr ta'lim oluvchilar, shu jumladan o'quvchilarni ham qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Maktablarda boshlang'ich ta'lim pedagog-o'qituvchilaridan pedagogik texnologiyalarlarning qo'llanishi masalasi dolzarb ahamiyatga ega, chunki ta'lim muassasasining ishiga pedagogik texnologiyalarlarning joriy etilishi – maktab ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va isloh etishning eng muhim shartidir. Maktablarda ta'lim-tarbiyani davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan ijtimoiy-pedagogik ish metodikasi asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijodiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali

marosimida “Bilimli avlod-buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do’stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” mavzusidagi ma’ruzasida: “... xalq ta’limi sohasidagi ta’lim standartlari va o’qitish uslublarini ilg’or xorijiy tajribalar asosida, o’quvchining individual qobiliyatini ro’yobga chiqarish nuqtai nazaridan qayta ko’rib chiqish lozim. Farzandlarimizning qobiliyatini ro’yobga chiqarishga bolalikdan e’tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko’plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug’beklar yetishib chiqadi[1]”, -deb ta’kidlagan edilar.

O’zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” dagi yetakchi vazifalardan biri ta’lim-tarbiyani ko’tarish, ta’lim mazmunini yangilash, yosh avlodning aqliy-intellektual taraqqiyotini ta’minlashga yo’naltirilgan uzluksiz ta’lim-tarbiyaning yangi modelini ilmiy-metodik jihatdan ta’minlangan holda muntazam takomillashtirib borishdan iboratdir. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” samaradorkigini oshirishda uzluksiz ta’lim tizimini pedagogik hamda axborot texnologiyalari bilan ta’minlashga erishish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon 1-4 sinflar orasidagi uzviylikni ta’minlash bilan bog’liq. Bugungi kunda ta’lim jarayonida keng qo’llaniyotgan axborot texnologiyalari o’quv jarayonini harakatlantiruvchi kuch yoki oldindan belgilab qo’yilgan aniq maqsad yo’lida o’qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta’limda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasidir.

Ta’limning kafolatlanganlik natijasi samaradorlikni va maqsadga erishishni belgilaydi. Bundan ko’rinadiki natija maqsadga qancha yaqin bo’lsa, o’quv-tarbiya jarayoni shuncha samarador hisoblanadi va bu ta’limning zamonaviy texnik vositalari va ilg’or texnologiyalarni amalga oshirishning muhim jihatlaridan bo’lib, ikkinchi talqin, ta’lim-tarbiya jarayoni maqsadi, vositasi, natijasini oldindan o’rganish, qayd etish yo’llari bilan o’qituvchining kafolatlangan natijaga erishishini ta’minlash. Shunday qilib ta’lim jarayoniga interfaol usullarni qo’llashda o’qituvchi ta’lim jarayonining boshqaruvchisi vazifasida bo’lib, bunda boshqaruv maqsadi ta’limning ob’yekti va sub’yekti sifatida o’quvchiga yo’naltiriladi. Demak, pedagogik texnologiya ta’lim mazmuni usul, shakl va

vositalar asosida yuzaga keladi. Ushbu jarayon kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltiriladi.

Ma'lumki, ta'limdan asosiy maqsad bolalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo'llarini o'rgatish, ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Yangicha ijtimoiy, iqtisodiy sharoitda boshlang'ich ta'limda o'qitish tizimini takomillashtirish, darslarni jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilish o'quvchi faolligini oshiradigan muhim omillardan hisoblanadi.

Ta'lim berish usuli - belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo'li bo'lib uni quyidagicha tasniflash mumkin: ma'ruza, hikoya, tushuntirish, namoyish, ko'rsatish, videousul, mashq, laboratoriya usuli, amaliy ish usuli, kitob bilan ishlash, suhbat, bahs, aqliy xujum, pinbord, o'quv loyihalar usuli, key-stadi va h.k. Ta'lim shakllari esa quyidagicha guruhlanadi: ommaviy ish, jamoaviy ish, guruhli, yakka tartibli. Ta'lim vositalari – o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi.

Boshlang'ich sinfda fanlardan dars beruvchi o'qituvchi haqiqiy ijodkor bo'lishi, ta'lim jarayonida o'quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, qiyoslash, farqlash, alohidaliklarga ajratish va tasnif qilishga yo'naltirilgan faoliyatini rag'batlantirishi, o'z fikri, g'oyalarini o'zgalarga yetkaza bilish ko'nikma va malakalarining shakllanishini nazorat qilishi, boshqarishi darkor. Shuningdek, u yoshlarning ahloqiy-ma'naviy tarbiyasi bilan shug'ullanishi, ularga sharqona muloqot odobi, milliy an'analarimizga hurmat, ona Vatanga muhabbat tuyg'usi kabi zaruriy xislatlarni singdira bilishi lozim. O'quv mashg'ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil qilish, talabaparni dars jarayonida maqsadli boshqara olish, ayni kunda o'qituvchilik faoliyatining bosh mezonini deb qaralmoqda.

Boshlang'ich sinfda ta'lim samaradorligi ta'lim printsiplariga rioya qilish bilan birga ta'lim metodlari va usullarini to'g'ri tanlashga ham bog'liq. Metod

(yunoncha) - muayyan maqsadga erishish, aniq vazifani bajarish usuli, borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish (bilish) usullari majmui.

Metod tushunchasining pedagogik ma'nosi bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish va ularni amaliyotda qo'llash demakdir.

Ta'lim metodlarini quyidagi turlarga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi:

1. O'qituvchi faoliyati bilai bog'liq metodlar;
2. O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.

Yuqorida sanab o'tilgan an'anaviy ta'lim metodlarini chuqur o'rganish, rivojlantirish va umumjahon ta'lim metodlariga yaqinlashtirishga urinish quyidagi natijalarni beradi:

1. Tayyor bilimlar bilan qurollantirish metodi:
 - darslik va o'quv qo'llanmalariga asoslanish;
 - ko'rgazmali didaktik vositalarga asoslanish.
2. Yo'naltiruvchi ta'lim metodi. O'quvchi faoliyatini bosqichli, tizimli yo'naltiruvchi (yozma va og'zaki) topshiriqlar asosida jadallashtirish.
3. Muammoli ta'lim metodi.
4. Ongli - verbal kognitiv ta'lim metodi. (Kashfiyot ta'lim metodi).

Yuqoridagi ta'lim metodlariga asoslangan holda o'quvchi faoliyatini quyidagicha ta'riflash mumkin:

1. Ongli kuzatish va xotirada saqlash metodi.
2. Yo'naltiruvchi topshiriqlar yordamida izlanish va xulosalar berish, bahs va munozara metodi.
3. Muammoni yechishga qaratilgan, maqsadli ijodiy faoliyat metodi.
4. Mustaqil va ijodiy izlanish orqali kashf qilish (matn yaratish) metodi.

O'quvchilar yuqoridagi metodlar yordamida o'zi egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi, amaliy-ijodiy tatbiq bilan shug'ullanadi. Tayyor bilimlar bilan qurollantirish metodi ta'lim tizimida eng qadimiy va sinalgan usullardan biri.

Bu metod bilan ishlashda o'qituvchi ortiqcha toliqmaydi: oldindan tayyor, o'quvchi uchun tushunarli holatga keltirilgan o'quv topshiriqlari va mashqlarni bajarishni tavsiya qiladi. O'quv-texnik vositalardan samarali foydalanadi.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik tizimning tarkibiy elementi hisoblangan o'qitish metodi ushbu jarayonni natijasini-ya'ni mashg'ulotning maqsadini ta'minlashda muhim hisoblanadi. Mashg'ulotlar jarayonida pedagogik texnologiyalarning samarali joriy etilishi ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyat yuritishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u ta'lim oluvchilarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Chunki ta'lim jarayonida o'quvchida mustaqil bilim olish ehtiyoji shakllanib borishi hozirgi kunning talabidir. Demak pedagogik texnologiyaning asosiy masalasi - ta'lim oluvchilarni bilimlarini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Bilimli avlod-buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza 2018 yil 7 dekabr. –Toshkent. “O'zbekiston” NMIU, 2018. – 12 bet.

2. Каримов, У., & Каримова, Г. (2018). ГЕОПОЛИТИЧЕСКАЯ КОНКУРЕНЦИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ. In *Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018)* (pp. 1368-1372).

3. Каримов, Ў., Каримова, Г., & Каримов, Ў. (2021). ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ СОҲАСИДАГИ АХБОРОТЛАШУВ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 1(1), 103-110.

4. Karimov, U. U., & Karimova, G. Y. (2021). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ACHIEVING EDUCATIONAL EFFECTIVENESS. *Журнал естественных наук*, 1(1).